

JAMIYATDA AYOLLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISH MASALASI

Mamatova Muxarram Saidvaliyevna

Namangan xalqaro tibbiyot texnikumi o'qituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada davlat va jamiyatda ayollarning roli, ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali jamiyatga gender tenglikni ta'minlash masalasi manbalar asosida atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: gender tengligi, shaxs, ta'lim-tarbiya, madaniyat, xadis, din, erkak, ayol, oila

ВОПРОС ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕ

Маматова Мухаррам Саидвалиевна

Преподаватель Наманганского международного медицинского колледжа

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ роли женщин в государстве и обществе, а также вопроса обеспечения гендерного равенства в обществе путем повышения социальной активности женщин, основанный на источниках.

Ключевые слова: гендерное равенство, личность, образование, культура, хадис, религия, мужчина, женщина, семья

THE ISSUE OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF WOMEN IN SOCIETY

Mamatova Mukharram Saidvaliyevna

Teacher of the Namangan International Medical College

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the role of women in the state and society, the issue of ensuring gender equality in society by increasing the social activity of women, based on sources.

Keywords: women, gender equality, personality, education, culture, hadith, religion, man, woman, family

Milliy istiqlol sharofati bilan komil insonni tarbiyalashga e'tibor kuchaydi. Bu jarayonda asosiy masalalardan biri ijodiy tashabbuskorlik salohiyati ila o'zligini namoyon qila oladigan, izlanuvchanlik hamda yaratuvchanlik qobiliyatiga ega ijtimoiy faol insonlarni kamol toptirishdir.

Shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy-psixologik kamoloti har qanday davlatning bosh strategik masalalaridan biridir. Chunki, shaxsni ma'lum ezgu g'oyalar, intellektual talablar asosida tarbiyalamay kuchli fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Zero, bu jarayonda ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar asosini tashkil etayotgan Harakatlar strategiyasi ham jamiyatning yangilanishida ayollarning ijtimoiy faolligini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Chunki ayol oilaning ruhiy va ma'naviy ko'lamini tutib turuvchi chashma, ya'ni buloqdir. Uni ma'naviy sarchashma, eng ulug' insoniy fazilatlar maskani sifatida ulug'lash zarur. Bu vazifani erkak oilaning posboni sifatida, ustuni darajasida amalga oshirishi lozim. Ayolni moddiy ehtiyoj manbai sifatida emas, balki ruhiy va ma'naviy ehtiyoj manbai sifatida ko'ra olish har bir erkak va otaning burchiga aylanishi lozim. Ayolni e'zozlash – farzandini, o'z kelajagini e'zozlashdir. Bugun respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi–xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida olib borayotgan davlatimiz siyosatida butun e'tibor insonga, uning barqaror taraqqiyotiga qaratilgan ekan, ayni damda ayollarning hayotiy faoliyatlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, muhofaza qilish davr talabiga aylandi.

Ayollarni e'zozlash va hurmatlash zarurligi haqida biz yuqorida tilga olgan zardushtiylik dinidagi quyidagi o'gitlar ham e'tiborga molik: “Qizingni aqlli, tafakkuri

yaxshi kishiga turmushga ber. Chunki aqlli va tafakkurli kishi xuddi hosildor yerga o‘xshaydi, agar unga urug‘ tashlasang, unumli hosil olasan”.[1.]

Tarixiy ma'lumotlarga ko‘ra, islomdan avvalgi samoviy din vakillari ayollar haqida ko‘p baxs yuritishgan va, nihoyat, ayollar erkaklarga xizmat qilish uchun yaratilgan, degan qarorga kelishgan. Arablarda esa ayollarga munosabat undan ham yomon bo‘lgan. Oilada qiz farzand tug‘ilsa, isnod deb bilib, uni tiriklayin ko‘mish hollari ham bo‘lgan. O‘sha davrda johiliyot hukmron bo‘lib, kishilar orasida "O‘g‘il –boylik, - qiz – dardisar", "Qiz bola ortiqcha yuk", "Qiz tuqquncha, tosh tuqqan afzal, chunki toshdan devor qurishda poydevoriga ishlatish mumkin"[2.] degan fikrlar keng tarqalgan bo‘lib, agar qarindoshlarda qiz dunyoga kelgudek bo‘lsa, o‘sha xonadonga ukki (boy o‘g‘li) makon qurdi degan xulosaga kelingan. Ma'lumki, ukki (boy o‘g‘li) vayronalarda yashaganligi bois unga baxtsizlik timsoli sifatida qaralgan. Bashariyatni jaholat zulmatidan ma'rifat nuriga olib chiqqan so‘nggi ilohiy din – Islom barcha insonlar zurriyoti, jinsidan qat'i nazar Alloh oldida teng huquqli ekanliklarini e'lon etdi. Islom dinining muqaddas manbai bo‘lgan "Qur'on"da tug‘ilgan qiz bolani tiriklayin ko‘mishni qat'iy man qildi. Bu xususda "Qur'oni Karim"ning "Takvir" surasida "Tiriklayin ko‘milgan qizdan qaysi gunohi uchun o‘ldirildi deb so‘ralsa.."[3.] degan oyat keltiriladi. Sho‘ro surasining 49-oyatida (mazmuni): "U o‘zi xohlagan kishiga qizlarini hadya etur va o‘zi xohlagan kishiga o‘g‘illarini hadya etur", deyiladi va birinchi bo‘lib, qiz farzand zikr qilinadi. Bu narsa juda muhim, chunki, Qur'onda nima oldin zikr qilinsa unda bir hikmat bo‘ladi. Ana shu hikmat tom ma'noda ayollarni e'zozlash, ularni ijtimoiy ma'noda faollashtirishni o‘zida mujassam etgan. Xotin-qizlarga munosabat hadisi sharifda hamda shariat ahkomlarida ham batafsil bayon etilgan. Shu bilan birga bu munosabatni ayrim tahlil etishga moyil muammolar ham mavjud. Misrdagi Al-Azhar universiteti fikhshunos olimasi doktor Suad Solih musulmon ayolining o‘z oilasi doirasida va jamiyatda mukammal o‘rin olishida g‘ov bo‘layotgan illat va sabablarni quyidagicha bayon qiladi: "Afsuski ayollarga muomalada dinimiz tarixidan uzoqlashildi. Zero jamiyatda ayolni qorong‘u jaholatga, yolg‘izlashga va cho‘rilikka bog‘langan tund rivoyatlar, to‘qima va yo shunga yaqin "hadis"lar tarqaldi"! [4.] Bu fikr bizning jamiyatimizning sobiq ittifoq mafkurasi tamoyillari asosida dinu-diyonatimiz

poymol etilgan davrlardagi holatni to‘la o‘zida mujassam etgan. Zero, ko‘p sohalarda hayotimiz yo‘nalishini to‘g‘rilash uchun payg‘ambarimiz sunnatlariga suyanish nechog‘lik matlub va zarur bo‘lsa, ijtimoiy hayotda ayolning ishtirok etishi sohasida ham ularning sunnatlariga ergashish nihoyatda zarur. Binobarin, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning saodatli asrlarida va musulmonlar ravnaq etgan davrlarda ayollar ijtihodda, hadis rivoyat etishda, adabiyotda, ta‘lim-tarbiyada, iqtisodda, boshqaruvda, harb va siyosatda faol edilar deb aytgan fikrlari keyingi davrdagi ilmiy adabiyotlarda berilgan manbalarda ham o‘z tasdig‘ini topgan. Jumladan, taniqli turk islomshunos tadqiqotchisi Baxri Uchoq o‘zining “Musulmon davlatlarida ayol hukmdorlar” nomli monografiyasida fan va adabiyot, san‘atdagi kabi ayollarning siyosatda ham o‘z nomlarini abadiylashtirganliklarini tilga olib, quyidagilarni yozadi: “Payg‘ambarning xotini Oyisha “Jamil” jangida erkak sarkardalar kabi lashkarlarni boshqardi... Ko‘pgina yevropa tadqiqotchilari – deb davom etadi B.Uchoq, – ayollarning islom jamiyatidagi mavqeini noto‘g‘ri tushunib, asrlar davomida xotinlar erkaklarning quli yoki devor orti (ichkari) dagi xizmatkor sifatida talqin etadilar.

Holbuki, ular o‘zlarining huquqiy maqomini yevropa ayollariga qaraganda ancha ilgariroq anglab yetganlar. Musulmon ayoli o‘zining savdodagi va mulkiy taqsimotdagi ulushi, jamiyatdagi o‘rnini yaxshi bilgan”.

Xotin-qizlarning ana shunday faolligiga sabab bo‘lgan omil esa ularning fidoiyligi, teran aqlu zakovatga, tadbirkorlikka moyilligidir. “Ayolning aqli jozibalidir, – deb yozadi nemis faylasufi I.Kant, – erkakning aqli teranroqdir, ammo bu degani ayol aqlining nosiqligi ma'nosida emas, balki noo‘rin xatti-harakatlardan saqlanishda ayol jozibasining ustunligi, uning fidoiyligi, barqarorligi ma'nosida anglashiladi. Hech qanday “kerak” degan narsaga, hech qanday majburlovga ayol toqat qila olmaydi. U nima qilgan bo‘lsa, o‘ziga yoqganligi uchun qiladi”. Yuqoridagi mulohazalar mohiyatiga chuqurroq nazar tashlansa go‘yoki aytilayotgan fikrlar xotin-qizlarni ijtimoiy faolligini oshirishga dahldor masalalardan ancha yiroq mantiqiy aloqadorlikka ega bo‘lmagan masaladek tasavvur beradi kishiga. Ammo ayollar masalasini, ularning muhofazasini ta‘minlashning tarixiy asoslarini o‘rganishning aytilgan fikr-qarashlarga bog‘liqligi shundaki, o‘tmishda

ayollarga berilgan imkoniyat bilan ularning huquqini cheklash, qadrini mensimaslik orasidagi tafovutni aniqlab olish, uning asl sabablarini o‘rganish, tarixiy o‘tmishda ayollar muammosidagi real voqyelik bilan undagi ziddiyatlarni tahlil etish uchun ham o‘zaro qiyoslash, solishtirish zaruriyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Хасанов Солий. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1996. - Б.98.
- 2.Вагабов М.В. Ислам и женщина.-Москва:Мысл, 1998. –С 24 .
3. Қуръони Карим. – Тошкент: Тошкент ислом университети, 2001. -Б. 586.
- 4.Суад Солиҳ. Муслмон аёли // Ҳидоят. – Тошкент, 2001, -№12. –Б.18-20.